
□ Yo'llarning ravonligi - xalqning farovonligi!

Ravon yo'l qurish, yoz va qish chillasida aynan yo'llarda duch kelinadigan qiyinchiliklarga barham berish maqsadida shu kecha-kunduzda Rishton tumanida ham bir qator ishlar amalga oshirilmogda.

Ayniqsa, bu borada ichki yo'llar ham bosqichma-bosqich ta'mirlanib kelayotgani aholiga katta qulaylikdir.

????Xususan, hozirgi vaqtda Rishton tumani "Yuqori Buloqboshi" mahallasining 800 metr masofadagi yo'l qismida shag'allashtirish ishlari boshlab yuborildi.

????— O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30 yilligi bayramiga ham sanoqli kunlar qoldi. Mahallamizdagilar allaqachon bayram kayfiyatida. Tozalik, obodlikni o'zlariga shior qilib olganlar ko'chalar, qabriston atroflari, xonadonlarni orasta qilib, daraxtlarga shakl beryaptilar. Ko'chalarning ravon yo'lga aylanayotgani esa bayramga sovg'a bo'ldi, -deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Zafarjon Abdurahmonov.

????Rishton tumani hokimligi axborot xizmati

□ Йўлларнинг равонлиги - халқнинг фаровонлиги!

Равон йўл қуриш, ёз ва қиш чилласида айнан йўлларда дуч келинадиган қийинчиликларга барҳам бериш мақсадида шу кеча-кундузда Риштон туманида ҳам бир қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Айниқса, бу борада ички йўллар ҳам босқичма-босқич таъмирланиб келаётгани аҳолига катта қулайликдир.

????Хусусан, ҳозирги вақтда Риштон тумани "Юқори Булоқбоши" маҳалласининг 800 метр масофадаги йўл қисмида шағаллаштириш ишлари бошлаб юборилди.

????— Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 30 йиллиги байрамига ҳам санақли кунлар қолди. Маҳалламиздагилар аллақачон байрам кайфиятида. Тозалик, ободликни ўзларига шior қилиб олганлар кўчалар, қабристон atroflari, хонадонларни ораста қилиб, дарахтларга шакл беряптилар. Кўчаларнинг равон йўлга айланаётгани эса байрамга совға бўлди, -дейди маҳалла фуқаролар йиғини раиси Зафаржон Абдурахмонов.

????Риштон тумани ҳокимлиги ахборот хизмати

2022-11-25 15:01:19